

HAROLD LAMB IJODIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD

BOBUR MAVZUSI

Sherzod Raxmonov

BITU magistranti

e-mail:sherzod_raxmanov@icloud.com

Annotatsiya. Milliy davlatchiligimiz tarixi, qolaversa, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi jahonning turli burchaklaridagi tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Xususan, buyuk davlat arbobi, ulkan saltanat va sulola asoschisi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi bo'yicha nafaqat mamlakatimiz yoki Bobur saltanat tuzgan mamlakatlarda, balki Yevropa va Amerikaning ilmiy-tadqiqot markazlaridan ham tarixchi va adabiyotshunos mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ana shunday tadqiqotchilardan biri – badiiy adabiyotda boburshunoslik ilmining Amerika maktabini boshlab bergan sharqshunos olim va yozuvchi Harold Lambdir. Maqolada ijodkorning “Bobur – yo'lbars” asari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Harol Lamb, «Babur the Tiger: First of the Great Moguls», Amerika boburshunosligi, “Boburnoma”.

Harold Albert Lamb (1892-1962) – amerikalik mashhur yozuvchi, asosan o'zining tarixiy shaxslar haqidagi biografiyalari bilan mashhur. U AQShning Nyu-Djersi shtatidagi Alpayn shaharchasida dunyoga kelgan. Bolaligidanoq ko'hna Sharq tarixiga bo'lgan qiziqish uni mashhur Kolumbiya universitetiga boshlab keldi. Bu yerda u amerikalik taniqli ma'rifatparvarlar Jon Erskin va Karl Van Dorenlar bilan tanishgan, ular bilan tez-tez ijodiy suhbatlar qurgan [1, 41]. Tahsil olish davomida Sharqiy Yevropa, Old Osiyo, Markaziy Osiyo, Xitoy va Hindiston tarixi bilan qattiq qiziqib qolgan [2, 784]. Asosan o'tmish, jumladan, buyuk hukmdorlar tarixini yoritishga bel bog'lagan yozuvchining asarlari orqali amerikalik kitobxonlar makedoniyalik Aleksandr, Chingizxon, Sohibqiron Amir Temur, sulton Sulaymon va boshqa Sharq hukmdorlari haqida 20 dan ortiq tarixiy kitobni mutolaa qilish baxtiga muyassar bo'lishgan [3, 196]. Ana shu ilmiy asarlar

orasida «Babur the Tiger: First of the Great Moguls» romani muallif ijodida alohida o‘rin tutadi.

«Babur the Tiger: First of the Great Moguls» asari muallifning so‘nggi kitobi bo‘lib, Lamb vafotidan biroz oldin nashr etilgan [4, 3]. Asar G‘ofurjon Satimov sa'y-harakatlari bilan tarjima qilinib, 2015-yilda «Bobur – yo‘lbars» nomi bilan o‘zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Asar kirish, «Vodiyda ro‘y bergan voqealar», «Boburning Samarqanddan quvilishi», «Qobuldagi saltanat», «Hirot bazmlari», «Murosai madora», «Hindiston sari yo‘l», «Panipat va Kanvadagi voqealar», «Buyuk Boburiylar saltanati» singari 8 qism va 28 bobdan iborat.

Asar nomlanishida shoh va shoir go‘yoki “mo‘g‘ul” deb e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, biroq asar muqaddimasida Boburni «...dunyoga tanilgan turkiy qavmlarning mashhur sardori Amir Temur avlodlaridan edi» [5, 7] deya e'tirof etishi, romanning ko‘p o‘rinlarida Boburning “osmonlar toqiga narvon qo‘ygan” Mirzo Ulug‘bekning izdoshi, deya ta'riflashi diqqatga sazovordir. Shu sababdan ham H.Lamb asarda Boburni, birinchi navbatda, shoir, iste'dodli noshir emas, balki buyuk sarkarda, davlat arbobi, xalq manfaatini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yuvchi millat sardori sifatida tasvirlaydi [1, 42]. Shu bilan birga buyuk ajdodimizning Sohibqiron avlodi ekanligini «Yosh shahzodaning asosiy maqsadi bobokaloni Amir Temurning niyatlarini amalga oshirish va shu bilan bu buyuk sulolaning avvalgi qudrati va obro‘yini qayta tiklash edi. Bu rejani amalga oshirishga Bobur Mirzo bir daqiqa bo‘lsa ham ikkilanmas, uning qarori qat’iy edi», – deya alohida urg‘u bilan tilga oladi [5, 55]

Muallif o‘z kitobini yozish uchun avvalo «Boburnoma»ga tayangan. Shu bilan birga shoh va shoir hayoti, temuriylar silsilasi, XV-XVI asr Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hindiston tarixi haqida hikoya qiluvchi manbalarni sinchiklab o‘rgangan. Chunki Harold Lamb Boburning «Mubayyin» asari, uning she'riy devoni, buyuk shayx Xo‘ja Ahror Valiyning «Volidiya» risolasining tarjimasi, «Xatti Boburiy» alifbosi bilan ham tanishib chiqqanini «Bobur – yo‘lbars» romanining bir necha o‘rinlarida eslab o‘tgan. Shu bilan birga

“Boburnoma”da tasvirlanmagan yillar, voqealarni tiklash va o‘rganish maqsadida o‘sha davr muarrixlari Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, shoh va shoirning qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlariga ham murojaat qilgan. Ammo tarixiy jarayonlarga faqat o‘rganilgan manbalardagi xulosalarnigina emas, balki o‘z fikrlarini ham keltiradi. Shoh va shoir hayotiga oid turli kitoblarda turlicha talqin qilingan masalalarga xolisona yondashishga urinadi. Xususan, «Boburnoma»ning uzilib qolgan joylarini tiklashda, shoh va shoir biografiyasini to‘liq baholashda ko‘proq Xondamir va Muhammad Haydar Mirzo fikrlariga yaqin xulosalarni bersa, «Humoyunnoma» asariga esa «...otasi yonida yurib, oilada bo‘lib o‘tgan voqealarni bayon qilib beruvchi bir ayolning xotiralari», tarzida qabul qilgan [5, 277]. Muallif asarni yozish uchun uzoq tayyorlangan. Bizningcha, H.Lamb «Bobur – yo‘lbars» ustida bir necha yillar davomida ishlagan, qayta-qayta tahrirdan o‘tkazgan. Xususan, asar boshlanishida yo‘l qo‘yilgan ba’zi xatolar: joy va shaxs nomlari, geografik ma’lumotlar asarning keyingi o‘rinlarida tuzatib borilgan. Har bir bob boshlanishida, xususan, Boburning Kobulda saltanat tuzishi yoki Hindistonga ketishi, yoxud uning vafotidan keyingi holatni baholashda o‘sha davrda G‘arbda kechayotgan tarixiy jarayonlar bilan solishtirgan [1, 43].

“Bobur –yo‘lbars” asarini o‘qish davomida muallifning shoh va shoirga muhabbati, qiziqishi naqadar yuqori ekanligini sezish mushkul emas. Shu bilan birga Lamb «Boburnoma»da uzilib qolgan, bizgacha yetib kelmagan qismlari uchun juda qayg‘urganini, ularda tasvirlangan voqealarni bilishga bo‘lgan qiziqishi yuqori ekanligini asarning bir necha o‘rinlarida ochiq aytib o‘tadi: «Ehtimol, u sahifalar suv toshqinida qolganmi, yoxud Bobur Mirzoning momoqaldiraq chaqinidek tez va shiddatli otlanishlari tufaylimi, yo bo‘lmasa, ehtiyotkorlik qilib saqlash uchun solingan sandiqning bir burchagida qolganmi, har holda, o‘sha sahifalar bizning ixtiyorimizda emas. Bobur Mirzoning turkiyda yozgan nusxasini fors tiliga ko‘chirgan xattotning asar hoshiyasidagi yozuvda:

«...o'sha yilgi qolgan voqealar Xudo xohlasa, qo'limizga tegadi», – deyilgan» [5, 94]

“Bobur – yo'lbars”da shoh va shoir umrining bir qismi emas, balki butun hayoti tasvirlangan va bu G'arb boburshunosligi maktabi uchun yangilikdir. Syujet qamrovi jihatidan H.Lambning bu biografiyasini “Boburnoma”, va qolaversa, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» tarixiy romani bilan qiyoslash mumkin. Shu bilan birga Harold Lamb romanni Boburning vafoti bilan tugatib qo'ymaydi, uning avlodlari Humoyun va Akbar davri, qolaversa, boburiylarning Hindistonning inglizlar tomonidan istilo qilingungacha bo'lgan tarixini qisqa satrlarda ta'kidlab o'tadi. Ammo shunisi e'tiborga molikki, muallif Sharq insonlari, ularning hayoti, shaxsiyatini tasvirlar ekan, boshqa G'arb yozuvchilari singari asarlarida fahsh syujetlar, qaysidir xalq yoki dinni kamsituvchi momentlarni uchratmaymiz.

Harold Lamb shoh va shoirning mashaqqatli, bahsli hayotini faqatgina tarixiy ma'lumotlar bilan tasvirlab o'tmaydi, ularga o'zining shaxsiy munosabatini ham aytib ketadi. Xususan, uning yozganidek: «Hozirgacha o'quvchilar Boburning g'ayritabiiy tarjimai holida bayon qilingan voqealarga qanchalik ishonish mumkin ekan, degan xayolga borishi –turgan gap. Bunday savolga javob shuki, muallif o'zining har bir harakati, har qadamida bo'lib o'tgan voqealar qay holda yuz bergan bo'lsa, ana shu holda, hech qanday mubolag'asiz yozgan. Uning xotirasi kuchli edi, shu bois ma'lumotlarni to'kis bayon qilgan»¹⁸.

“Bobur – yo'lbars” romani Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodi, shaxsiyati tasvirlangan G'arbda yozilgan asarlar orasida alohida o'rin tutadi. Harold Lambning sehrli qalami, xalqimiz va boy qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqishi, shoh va shoirga bo'lgan yuksak muhabbati tufayli Amerikada shunday bir buyuk asar dunyoga keldi, bu orqali G'arb kitobxoni millatimiz darg'alari, buyuk o'tmishimiz to'g'risida ma'lumot olish imkoniga ega bo'ldi. Shu sababdan ham o'zbek kitobxonlari, adabiyotshunoslari, tarixchilari, umuman, shoh va shoir

¹⁸ Ламб Х. Бобур - йўлбарс. -Т.: Ўзбекистон, 2018. – 144 б.

hayoti-yu ijodiga befarq bo'lmagan insonlar Lambga bu buyuk madaniy meros uchun o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kamolov I.N. Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv. Fil.f.b.f.d (PhD) dissertatsiyasi. Qarshi – 2022. 136 b.
2. Twentieth Century Authors, a biographical dictionary of modern literature. / Ed. by [Stanley J. Kunitz](#) and Howard Haycraft; (Third Edition). [New York: The H. W. Wilson Company](#), 1950 (784-785 p.)
3. Quvvatova D., Kamolov I. Biographical approach to the personality Babur in Western literary studies. International journal Word Art. Volume 1, Issue 2. T., 2020. –P.196 .
4. Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – New York: Garden city, 1961. –P.351.
5. Harold Lamb. Bobur – yo'lbars. -Toshkent.: "O'zbekiston", 2018. – 367 b.